ISLOM DINIDA TOLERANTLIK TAMOYILLARI VA ULARNING ZAMONAVIY TALQINI

Normuhammadov Oyatilloh Akmaljon o'g'li

O'zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi

"Islom iqtisodiyoti va xalqaro munosabatlar"

ta'lim yo'nalishi 1-bosqich talabalasi.

oyatillohnormuhammadov888@gmail.com

+(998)90.631.62.12.

Annotatsiya

Mazkur maqolada Islom dinining diniy bag'rikenglikka oid asosiy tamoyillari Qur'on oyatlari, huquqiy-me'yoriy hujjatlar hamda zamonaviy ijtimoiy-siyosiy tajriba asosida tahlil qilinadi. Unda diniy erkinlik, e'tiqod hurriyati va dinlararo munosabatlarning nazariy hamda amaliy jihatlari yoritilib, O'zbekiston tajribasi misolida bag'rikenglik muhitining shakllanish omillari ochib beriladi.

Kalit so'zlar: diniy bag'rikenglik, Islom dini, vijdon erkinligi, dinlararo totuvlik, tolerantlik, konfessiyalararo munosabatlar.

Annotation

This article analyzes the principles of religious tolerance in Islam based on Qur'anic verses, legal frameworks, and modern socio-political practices. It examines the concepts of freedom of belief and interfaith relations, highlighting the theoretical and practical aspects of tolerance. The experience of Uzbekistan is presented as a model of peaceful coexistence among different religious communities.

Keywords: religious tolerance, Islam, freedom of conscience, interfaith harmony, tolerance, interreligious relations.

Аннотация

В данной статье рассматриваются основные принципы религиозной толерантности в исламе на основе аятов Корана, нормативно-правовых документов и современного социально-политического опыта. Анализируются вопросы свободы совести и межконфессиональных отношений, а также раскрывается опыт Узбекистана как пример гармоничного сосуществования различных религий.

Ключевые слова: религиозная толерантность, ислам, свобода совести, межконфессиональное согласие, толерантность, межрелигиозные отношения

Tolerantlik turli din, e’tiqod va dunyoqarash vakillariga nisbatan hurmat, sabr-toqat va adolatli munosabatda bo‘lishni anglatadi. U jamiyatda tinchlik va barqarorlikni ta’minlashning muhim omili bo‘lib, insonlarning o‘z e’tiqodini erkin tanlash va amalga oshirish huquqini tan olishga asoslanadi. Bugungi globallashuv sharoitida diniy bag‘rikenglik masalasi yanada dolzarb bo‘lib, u jamiyatlararo totuvlikni mustahkamlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Islom dini o‘z mohiyatiga ko‘ra bag‘rikenglik, adolat va insonparvarlik dinidir. Qur’oni karimda: “Dinda majburlash yo‘q” (Baqara surasi, 256-oyat) deb ochiq-oydin ta’kidlanadi [1, 42b.]. Bu oyat har bir insonning e’tiqod erkinligini kafolatlaydi va dinni qabul qilish faqat ixtiyoriy bo‘lishi kerakligini bildiradi. Shuningdek, Kafirun surasida: “Sizlarning diningiz - sizlarga, mening dinim menga” degan mazmundagi oyatlar orqali dinlararo hurmat g‘oyasi ilgari suriladi [2, 604b.]. Bu esa turli e’tiqod vakillari o‘rtasida o‘zaro hurmat va tinchlikda yashash zarurligini ko‘rsatadi.

Islomda boshqa din vakillariga nisbatan adolatli va mehribon bo‘lish alohida ta’kidlanadi. Jumladan, Qur’onda: “Alloh, diningiz sababli sizlar bilan

urushmaganlarga (diningizda yashaganingiz uchun sizlarga hurmat ko’rsatganlarga), sizlarni yurtingizdan haydab chiqarmaganlarga yaxshilik qilishdan va ularga adolatli munosabatda bo`lishdan sizlarni qaytarmas.” (Mumtahana surasi, 8-oyat) deyiladi [3, 550b]. Bu oyat musulmonlarga boshqa din vakillari bilan tinchlik va adolat asosida munosabatda bo‘lishni buyuradi. Demak, Islom dini nafaqat o‘z e’tiqodiga hurmat bilan qarashni, balki boshqalarning e’tiqodiga ham bag‘rikenglik bilan yondashishni targ‘ib qiladi. Barchamizga ma’lumki, O‘zbekiston Respublikasida diniy bag‘rikenglik davlat siyosatining muhim yo‘nalishlaridan biridir. Konstitutsiyaning 35-moddasida har kimning vijdon erkinligi kafolatlanishi, istalgan dinga e’tiqod qilish yoki umuman e’tiqod qilmaslik huquqiga egaligi belgilab qo‘yilgan [4, 12b]. Shuningdek, diniy qarashlarni majburan singdirishga yo‘l qo‘yilmasligi ham qonun bilan mustahkamlangan. 75-moddaga ko‘ra esa diniy tashkilotlar davlatdan ajratilgan bo‘lib, ularning qonun oldida tengligi ta’minlanadi va davlat ularning faoliyatiga aralashmaydi [5, 25b]. Bu normalar mamlakatda dinlararo totuvlikni ta’minlashda muhim huquqiy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Yurtimizda turli millat va din vakillari o‘rtasida totuvlik va hamjihatlikni mustahkamlashga alohida e’tibor qaratilmoqda. Respublika Baynalmilal madaniyat markazi va milliy madaniyat markazlari faoliyati turli xalqlarning urf-odatlari va an’analarini asrash hamda rivojlantirishga xizmat qilmoqda [6]. Bu esa jamiyatda millatlararo uyg‘unlikni kuchaytiradi va fuqarolar o‘rtasida o‘zaro hurmatni mustahkamlaydi. Shuningdek, O‘zbekiston tajribasi xalqaro miqyosda ham e’tirof etilmoqda. BMT Inson huquqlari bo‘yicha sobiq Oliy komissari Zayd al-Husayn mamlakatimizdagi dinlararo va millatlararo totuvlikni boshqa davlatlar uchun o‘rnak sifatida baholagan [7]. Bu esa yurtimizda olib borilayotgan siyosatning to‘g‘ri va samarali ekanini ko‘rsatadi. Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov ta’kidlaganidek, ko‘p millatlilik jamiyat taraqqiyotiga to‘sqinlik qilmaydi, aksincha, turli madaniyatlarning o‘zaro ta’siri ijtimoiy va ma’naviy boylikni oshiradi [8]. Shu bois

“O‘zbekiston — umumiy uyimiz” g‘oyasi mamlakatimizda barcha millat va din vakillarini yagona maqsad yo‘lida birlashtiradi.

Xulosa qilib aytganda, Islom dini o‘z mohiyatiga ko‘ra diniy bag‘rikenglikni targ‘ib etadi va insonlarni o‘zaro hurmat, adolat va tinchlikka chorlaydi. O‘zbekiston esa ana shu qadriyatlarni amalda namoyon etayotgan davlat sifatida dinlararo totuvlik va hamjihatlik borasida ibratli tajribaga ega. Diniy bag‘rikenglik jamiyat barqarorligi va taraqqiyotining muhim omili bo‘lib qolaveradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Fayzul-Furqon/ Shayx Abdulazziz Mansur – Toshkent: Irfon, 2024. – Baqara surasi, 256-oyat [42b.].
2. Fayzul-Furqon/ Shayx Abdulazziz Mansur – Toshkent: Irfon, 2024. – Kafirun surasi, 6-oyat [604b.].
3. Fayzul-Furqon/ Shayx Abdulazziz Mansur – Toshkent: Irfon, 2024. – Mumtahana surasi, 8-oyat [550b.].
4. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent, 2023. – 35-modda [12b.].
5. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent, 2023. – 75-modda [25b.].
6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti rasmiy veb-sayti. – “Millatlararo totuvlik va bag‘rikenglik siyosati” maqolasi https://www.president.uz/lists/view/198
7. O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari milliy bazasi https://lex.uz/docs/-6515651
8. Tarjimai hol va nutqlar to‘plami https://islomkarimov.uz/uz/page/tarjimai-hol?ysclid=moltj4kver351771379